

Yo'ldashova Sevara Nuraddin qizi

UrDPI 2-bosqich talabasi

YANGI O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING YANGI YO‘NALISHLARI VA TARAQQIYOT STRATEGIYASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollar huquqlarini himoya qilishning ustuvor yo‘nalishlari taraqqiyot strategiyasining ayollar masalalariga tegishli bo‘gan maqsadlari va xotin-qizlarni kamsitilishiga barham berish shuningdek, O‘zbekistonda ayollar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari va gerder tenglik kabi masalalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ayol, tenglik, gender tenglik, huquq, kamsitish, imkoniyat, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, konvensiya, jamiyat, konstitutsiya, adolat.

Abstract: In this article, the priorities of the protection of women's rights, the goals of the development strategy related to women's issues and the elimination of discrimination against women, as well as the legal basis for the protection of women's rights in Uzbekistan and issues such as gender equality are highlighted.

Keywords: Women, equality, rights, discriminaton, opportunity, social, support, convention, society, constitution, justice

Аннотация: В данной статье рассмотрены приоритеты защиты прав женщин, цели стратегии развития, связанные с женскими проблемами и ликвидацией дискриминации в отношении женщин, а также правовая основа защиты прав женщин в Узбекистане и такие вопросы, как гендер. равенство подчеркнута.

Ключевые слова: Женщины, равенство, права, дискриминация, возможности, социальная поддержка, конвенция, общество, конституция, справедливость.

Yangi O‘zbekistonda ayollar huquqini himoya qilish va taraqqiyot strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi tomonidan amalga oshirilayotgan muhim ijtimoiy tadbirlar qatoriga kiradi. Ushbu strategiya ayollarni faol hayotga jalb qilish, ularning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini himoya qilish, ta'lim, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarida ularga teng imkoniyatlar yaratish maqsadini ko‘zlaydi.

Ayollar huquqini himoya qilish bo‘yicha O‘zbekistonda quyidagi asosiy yo‘nalishlar amalga oshirilmoqda:

1. Huquqiy asoslar: Ayollarning huquqlarini himoya qilish uchun zarur bo‘lgan qonunchilik bazasini mustahkamlash, yangi qonunlar qabul qilish va mavjud qonunlarni takomillashtirish.
2. Iqtisodiy mustaqillik: Ayollar uchun ish o‘rinlari yaratish, tadbirkorlikni rag‘batlantirish va moliyaviy savodxonlikni oshirish.
3. Ta'lim va malaka oshirish: Ayollar uchun ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ilm-fan va texnologiya sohalarida ularga ko‘maklashish.

4. Sogʻliqni saqlash: Ayollar sogʻligini himoya qilish va ularning reproduktiv huquqlarini nazorat qilish boʻyicha yangiliklar kiritish.

5. Ijtimoiy himoya: Ayollarni zoʻravonlikdan himoya qilish, uning oldini olish boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

6. Xalqaro hamkorlik: Oʻzbekiston xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirib, global ayollarning huquqlarini himoya qilish boʻyicha tajriba almashish.

Ushbu tashabbuslar orqali Oʻzbekiston ayollarining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etishi uchun qulay sharoitlarni yaratishga intilmoqda. Oʻzbekistonning kelajakdagi taraqqiyotida ayollarning roli katta boʻlishi kutilmoqda. Shuningdek keyingi yillarda barcha sohada xotin-qizlar va erkaklar tengligini taʼminlashning huquqiy asosini yanada mustahkamlash borasida salmoqli ishlar olib borilmoqda. Buni 42 dan ziyod meʼyoriy-huquqiy hujjat qabul qilingani misolida ham koʻrish mumkin. Xususan, ikkita muhim hujjat — “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida”gi qonunlar bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni taʼminlash maqsadida 2030-yilga qadar Oʻzbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilindi. Erkak va ayollar uchun nikoh yoshi 18 yosh etib belgilandi. Ayollar mehnati toʻliq yoki qisman qoʻllanilishi taqiqlanadigan mehnat sharoiti noqulay boʻlgan ishlar roʻyxati bekor qilindi. Ichki ishlar tizimida xotin-qizlar bilan ishlash masalalari boʻyicha inspektor lavozimi joriy qilinganligi ham ayollarga boʻlgan eʼtiborning yuqoriligidandir.

2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qoʻllab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Prezident Farmoni muhim dasturilamal boʻldi desak adashmagan boʻlamiz. Natijada 2022-yil sentabrdan boshlab xususiy korxonalar va tashkilotlarda kamida olti oy ishlagan xotin-qizlar uchun davlat budjeti hisobidan homiladorlik va tugʻish nafaqasini moliyalashtirish yoʻlga qoʻyilganligi . 2022-yil sentabr-dekabr oylarida ana shu maqsadda davlat tomonidan 3 ming 735 nafar ayolga 7,45 milliard soʻm berilib, joriy yilda esa 131 milliard soʻm ajratilganligi ham bezij emas.

Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan islohotlar izchil davom ettirilyapti. Ijtimoiy faol ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlab borish, ularni oʻqitish, malakasini oshirish boʻyicha oʻziga xos tizim yaratib berilganligi ham yaxshi imkoniyatlardan biri deb oʻylayman.

2016-yilda yurtimizda rahbar ayollar soni 7 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2020-yilga kelib bu koʻrsatkich 12 foizga yetdi, 2022-yilga kelib esa rahbar ayollarning ulushi 27 foizga, tadbirkorlar orasida esa 25 foizga yetdi.

Shularga mos ravishda davlat organlari va tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan istiqbolli xotin-qizlarning yagona elektron bazasi yaratilib, unda 25 mingdan ziyod rahbarlikka nomzod xotin-qizlar zaxira roʻyxati shakllantirildi.

Qolaversa, Davlat boshqaruvi akademiyasi hamda Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi tomonidan rahbar xotin-qizlarni tayyorlash boʻyicha 552 soatlik “Rahbar ayollar maktabi” oʻquv dasturi ishlab chiqilgan boʻlib, 100 nafar faol opa-singillarimiz bilim va malaka oshirdi. Ayni chogʻda

Davlat boshqaruv akademiyasini tamomlagan 142 nafar ayol to'g'risidagi ma'lumot shakllantirilib, O'zbekiston Respublikasi Milliy kadrlar zaxirasi bazasiga kiritildi.

So'nggi yillarda xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar olib borilayotir. Zero, biz uzoq vaqt ayollar masalasi haqida ko'p gapirsak-da, amaliy ishlar deyarli sezilmasdi. Opa-singillarimizning dardu tashvishiga beparvo qarab kelganimiz tufayli yillar davomida ko'plab ijtimoiy muammolar to'planib qolgan edi.

Ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli va kompleks chora-tadbirlar ro'yobga chiqarilmoqda. Joriy yilning o'zida yoshlarni va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga 6,6 trillion so'm ajratilishi rejalashtirilgan, bu maqsadlarga yo'naltirilgan mablag' o'tgan yildagiga nisbatan 1,5 barobar ko'pdir.

Xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha so'nggi yillarda tizimli ishlar qilindi. 2020-yildan ijtimoiy himoyaga muhtoj oila qizlariga oliy ta'limga o'qishga kirish uchun 4 foiz kvota joriy etildi. 2022/2023-o'quv yilidan oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda o'qiyotgan xotin-qizlarning ta'lim kontraktini to'lash uchun foizsiz ta'lim kreditlari berish boshlandi. Magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlar shartnoma to'lovlarini davlat tomonidan qoplash tartibi belgilandi. Ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki otanasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba qizlarning ta'lim shartnomalarini mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan qaytarish shartisiz qoplash tartibi joriy qilindi. Aliment jamg'armasi tashkil etilib, jamg'armadan aliment to'lovlari qoplab berilayotgani ham diqqatga sazovor.

Yangilangan Konstitutsiya va ayollar huquqlari

Xalqimiz xohish-irodasi bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz bu yo'nalishdagi islohotlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim huquqiy asos bo'ladi. Zero, Konstitutsiya yangi tahririni ishlab chiqishda xalqimiz fikriga tayanildi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasiga takliflarning 40 foizdan ortig'i ayollardan kelib tushdi. Bu — yangi normalarda xalqimiz dunyoqarashi, fikr va tafakkuri aks etganining yorqin ifodasidir.

Nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda haqiqiy ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam — bolalar, ayollar, qariyalar va nogironligi bo'lgan shaxslardir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam e'tibordan chetda qolmadi. Har bir qatlamning ijtimoiy muhofazasi atroflicha qamrab olindi. Shu bois Konstitutsiyamiz inson manfaati va qadri ulug'langan ochiq demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida huquqiy poydevor bo'ladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi to'g'risidagi yangi norma kiritilib, bunday diskriminatsiyaga chek qo'yishning huquqiy asosi yaratildi. Shu bilan birga, Bosh qomusimizda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi belgilandi.

Asosiy qonunda ayol va erkaklar teng huquqli ekani belgilanishi ham bejiz emas. Bu yillar davomida mustahkamlangan stereotiplarni sindirish, xususan, "ayol kishi uyda o'tirishi kerak", "ayollarga siyosatga aralashishni kim qo'yibdi" kabi qarashlarni bartaraf etishda muhim qadam bo'ldi.

Gender tenglik tamoyillarini Konstitutsiyada belgilash davlatning ayollarga bo‘lgan alohida e’tiborini ko‘rsatishi bilan birga, xotin-qizlarning davlat va ijtimoiy hayotdagi rolini oshirib, imkoniyatini namoyon etishiga ko‘maklashadi. Jamiyatda gender tenglikni ta’minlash borasidagi ana shunday izchil islohotlar samarasida xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotidagi faol ishtiroki yanada kuchayadi. Xususan, 2030-yilga qadar boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini kamida 30 foizga yetkazish ko‘zda tutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://lex.uz/docs/-6445145>
 2. ndp.org/uz/uzbekistan/press-releases/bmt-agentligi-xotin-qizlarni-kamsitishning-barcha-shakllariga-barham-berish-togrisidagi-konventsia
 - 3 <https://senat.uz/articles/post-946>
 4. <https://lex.uz/docs/-5899498>
 5. <https://www.lex.uz/docs/4494709>
 6. <https://uzmarkaz.uz/news/ozbekistonda-ayollar-huquqlarini-himoya-qilishning-huquqiy-asoslari>
- <https://senat.uz/articles/post-946>